

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS

VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

№ 1028

O'quv ishlari bo'yicha prorektor
Bozorov O.N.
2022 yil

2022 yil

29 08



“Taqqoslama menejment”

FANIDAN

Fan sillabusi

Bilim sohasi:

200000-Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta'lim sohasi:

230000-Iqtisod

Ta'lim yo'nalishi:

5A230201 – Menejment (tarmoqlar va sohalar
bo'yicha)

Qarshi-2022 y

Fanning sillabusi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va 2022 yil "28" 06 dagi "1" - sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida tuzilgan.

Tuzuvchi:

"Biznes va innovatsion menejment"
kafedrasl dotsenti I.E. Tursunov

Fanning sillabusi «Biznes va innovatsion menejment» kafedrasining 2022 yil avgustdagi —sonli yig'ilishida muhokamadan o'tilgan va "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Fanning sillabusi "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon № 01.29.08 2022 y.) 2022 yil avgust) va institut Uslubiy Kengashida (bayon № 01.29.08 2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv- uslubiy bo'lim boshlig'i:

Fakultet uslubiy komissiya raisi:

dots. Turdiyev Sh.

dots. Qurbonov A.B.

"Taqqoslama menejment" fani sillabusi

Fan (modul) kodi COMMAN7,5	O'quv yili 2022-2023	Semestr 2	ECTS krediti 7,5
Fan (modul) turi Majburiy	Ta'lim tili o'zbek		Haftalik dars soati 6
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
Taqqoslama menejment	90	135	225

O'qituvchi haqida ma'lumot

Kafedra nomi	Biznes va innovatsion menejment		
	F.I.SH.	Telefon nomeri	e-mail
O'qituvchilar	Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich	+998 91 4626226	tursunov-ic64@mail.ru
Ma'ruzachi	Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich	+998 91 4626226	tursunov-ic64@mail.ru
Amaliy mashg'ulot			
Laboratoriya mashg'uloti			

I. Fan tavsifi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqlar, korxonalar va firmalarni samarali boshqarishning xorijiy tajribalarini o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining yuksak marralar erishib boraror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq demokratik huquqiy davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan, jahon miqyosida obro'-e'tibor qozongan jamiyat barpo etish borasida olib borayotgan tizimli ishlarini yana bir bor takkidlab o'tishimiz lozim bo'ladi. Biz bu tanlagan yo'limizda o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadga qaratilgan uzoq va murakkab yo'lining bir qismini o'tik xolos. Hali oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri bu - erishilgan yutuqlarni yanada takomillashtirish uchun, mutaxassislariga ilg'or xorijiy tajribalarini o'rgatish, rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash zarur bo'ladi. Bu yo'nalishda "Taqqoslama menejment" fani muhim o'rin tutadi.

Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadni amalga oshirishning mantig'i mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan va O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdosligini oshirish va mavqeiini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlanirish siyosatini mamlakatni rivojlanirishning asosiy ustuvor yo'nalish sifatida davom ettirishni taqozo yetmoqda.

Bugungi kunda asosiy ustuvor yo'nalishlarga erishish maqsadida shu masalalar bo'yicha haqiqiy ahvolni atroflicha o'rganishimiz, hozirgi vaqtda mutaxassislar tayyorlanayotgan har qaysi ixtisoslik yo'nalishi real hayot talablariga qay darajada javob berishi, unga nafaqat bugungi, balki yaqin istiqbolda qanday ehtiyoj borligini har tomonlama chuqur aniqlashimiz lozim.

II. Fanning maqsadi.

Fanni o'qitishdan maqsad: – talabalarni jahondagi mavjud menejment modellari va iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari hamda turli mamlakatlar madaniyati – qadriyatlarini o'qitish va ularning ko'pmillatli kompaniyalar boshqaruvidagi ta'siri, xalqaro kompaniyalar miqyosidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida biznes operatsiyalar va jarayonlarni samarasi ta'minlashning buzaviy konsepsiya va usullari bilan tanishtirish.

Fanning vazifalari – kuchli raqobat sharoitida TMK, boshqaruv tizimining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va optimallashtirish yo'llarini izlash va xorijiy mamlakatlarining ilg'or menejment modellari qo'llash imkoniyatlari qo'llash bo'yicha malakaviy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

III. Ta'lim berish natijalari

Fan bo'yicha talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Talaba:

– Biznesga qaror qabul qilish fanini o'zlashtirish jarayonida:

- biznesning shakllanishi va tarixini;
- biznesning rivojlanishi va uning ilmiy maktablarini;
- biznesni boshqarish usullari mohiyatini;
- Biznesga qaror qabul qilish usullarining predmeti va mazmunini;
- Biznesga qaror qabul qilish qonunlari va tamoyillarini;
- Biznesga qaror qabul qilish ilmiy usullarining samaradorligini oshirish asoslarini belgilashni;

– Harakatlar strategiyasi tushunchasi, mohiyati va turlarini aniqlash.

Quyidagilar bo'yicha amaliy ko'nikmalar o'rnatish zarur:

- Biznesga qaror qabul qilish mohiyati va ahamiyatini asoslab berishi;
- talaba korxonada biznes muhitini o'rganishi;
- tadbirkorlik muhitini va strategik vaziyatni o'rnatish, bilishi va ulardan foydalanish olishi;

– Biznesga qaror qabul qilish qonunlari va tamoyillarini qo'llay bilishi;

– Biznesga qaror qabul qilish usullarining ilmiy samaradorligini oshirish asoslarini belgilashni va tatbiq etishni;

– tadbirkorlikning mazmun mohiyatini va turlarini aniqlash hamda samarali foydalanish usullarini belgilab olish;

– tadbirkorlik faoliyatini asoslab berish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– tadbirkorlik menejmenti qonunlari va tamoyillarini tatbiq etish;

– tadbirkorlik menejmenti usullarini qo'llash samaradorligini oshirish;

– biznesni boshqarishda qarorlarni oqilona ishlab chiqish va foydalanish yo'llarini aniqlash

– korxonada biznes boshqaruvi tashkil etish malakalariga ega bo'lish kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

– "Taqqoslama menejment" fani mutaxassislik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, I-kursning I-semestrida o'qitiladi.

– "Taqqoslama menejment" fani mutaxassislik fanlar turkumiga kirib, boshqa mutaxassislik fanlarining nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o'z rivojida aniq yo'nalishdagi iqtisodiy fanlar (Menejmentda tadqiqot usullari, Strategik boshqarish, Loyihaviy menejment, Moliyaviy menejment va nazorat, Operatsion menejment va h.k.)dan ham ozuqa oladi. U tadqiqot usullari bo'yicha boshqa ijtimoiy (Milliy g'oya: O'zbekistonning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi, Axborot tizimlari va h.k.) fanlar bilan ham mustahkam bog'liqdir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarining "Taqqoslama menejment" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma hamda majmualar, ma'ruza matnlari, tarqatma va elektron materiallar, virtual standlar va maketlardan, shuningdek, "insert", "blits-so'rov", "klaster", "aqliiy hujum" kabi usullardan keng foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va laboratoriya darslarida mos ravishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalaniladi.

– "Taqqoslama menejment" fani o'quv mashg'ulotlari fan o'qituvchisi tomonidan pedagogik va modulli texnologiya tamoyillari asosida loyihalari ishlab chiqiladi.

Fan buyicha ma'ruza matnlari tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdustlik mamlakatlarida yangi chop etilib, "Internet" tizimi orkali tarqatilgan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlari foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruzalarni o'qitishda elektron ma'ruzalardan, mavzularga mos multimedial slaydlar va videofilmlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda elektron mashqlar va masalalar to'plamlaridan, kompyuterlar yordamida fan buyicha kompyuter o'yinlari, test savol-javoblari, laboratoriya mashg'ulotlarida esa qurilmalar va jihozlarning hamda texnologik jarayon kechishining kompyuterdagi elektron modellardan, virtual laboratoriyalardan foydalaniladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimining barcha belgilarini o'zida mujassam etmoq i lozim: jarayonning mantiqligi, uning barcha bo'g'inlari o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va inkomiyatlari, tashabbuskorligini o'chishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlari yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish, muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlari.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejalari tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

IV. Ta'lim berish usullari

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminar;
- guruhlarda ishlash;
- individual loyilar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni yechish;
- so'rov o'tkazish.

V. Faning tarkibiy tuzilishi (Content):

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari:

No	Mavzu, bo'lim nomi	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot
1.	Taqqoslama menejmentning nazariy asoslari Taqqoslama menejmentning yuzaga kelishi va rivojlanishi. Taqqoslama menejment fan sifatida rivojlanishi va G'arbda menejmentning nazariyasi va amaliyoti. Taqqoslama menejment fanining predmeti. Taqqoslama menejmentning fan sifatida yuzaga kelishi.	2	2
2.	Taqqoslama menejmentda madaniyat Madaniyatning turli nazariyasi va ularga yondashuvlar. Ishchan madaniyat tasnifi. R.Lyuis tasnifi. Ma'lumotlarni qayta ishlash borasida ishchan madaniyatlar tasnifi. G.Xofstede tadqiqotlari. F.Trompenaars nazariyasi.	2	2
3.	Madaniyat va rahbarlik stili Boshqaruv modellarini shakllantiruvchi omillar. Qadriyatlar tizimi. Qaror qabul qilish usullari. Taqqoslama menejmentda institutsional yondashuv. Institutsional iqtisodiyot.	4	4
4.	Xalqaro kompaniyalarning institutsional muhiti Iqtisodiyotni transformatsiyalashda institutsional va ijtimoiy madaniy omillar. Institutsional nazariy asoslarini yuzaga kelishi va rivojlanishi.	4	4

	maktab asoschilari: Torsteyn Veblen (1857-1929), Djon Rodjers Kommons (1862-1945) Uesli Kler Mitchell (1874-1948), Yozef Shumpeter (1883-1950). Institutsional iqtisodiyotning zamonaviy nazariyalari: Djon Kennet Gelbreit (1908-2006), Ronald Garri Kouz (1910), Duglas Sesil Nort (1920), Deniel Bell (1919), Elvin Toffler (1928)	2	
5.	Taqqoslama menejmentda motivatsiya Multimilliy jamoalarda rag'batlantirish tizimini farqlanishi. Mamlakatlarning madaniy xususiyatlarini rag'batlantirish tizimiga ta'siri. Turli mamlakatlarda mexnatni rag'batlantirish amaliyoti.	2	2
6.	Taqqoslama menejment tizimida kommunikatsiya Kommunikatsiya jarayon sifatida. Madaniyatlararo kommunikatsion kanallari. Kommunikatsiya stillari. Kommunikatsion oqimlar. Kommunikatsion jarayonlarda va zamonaviy-kommunikatsion texnologiyalar. Kommunikatsion jarayonlarda madaniy shovqinlar. Tilga oid ta'sirlar. Noverbal kommunikatsiyalar.	2	2
7.	AQShning menejment modeli AQShning iqtisodiy geografik tavsifi. AQSH iqtisodining o'ziga xos xususiyatlari. AQSH menejmenti nazariyasi. Ilmiy menejment. M.Porter nazariyasi.	2	2
8.	Menejmentning Yevropa modeli Iqtisodiy rivojlanish modellari va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari iqtisodida davlatning roli. Yevropa menejmentida amaliy madaniyatning turli tumanligi. Yevromenejer portreti.	2	2
9.	Menejmentning nemis modeli Germaniya iqtisodiyotining umumiy tavsifi. Urushdan keyingi davr : bozor iqtisodiyotini shakllanishi va G'arbiy va Sharqiy Germaniyaning iqtisodiyotlari raqobati. Nemis modeli ijtimoiy bozor xo'jaliklarining dolzarb muammolari. Nemis modeli rivojlanishining saboqlari va o'ziga xos xususiyatlari. G'arbiy va Sharqiy Germaniya madaniyatlarini o'rtasidagi farqlar.	2	2
10.	Menejmentning Fransuz modeli Fransiya iqtisodi. Fransiya iqtisodiy rivojlanish modelining o'ziga xos makroiqtisodiy xususiyatlari. Fransiya boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimi. Fransiya amaliy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirishda davlatning roli.	2	2
11.	Buyuk Britaniya menejmenti Mamlakat umumiy tavsifi. Buyuk Britaniya modeli rivojlanishining o'ziga xos makroiqtisodiy xususiyatlari. Menejment modeli. Amaliy madaniyatda britaniya individualizmi. Boshqaruvning Britaniya stili. Britaniya menejeri portreti.	2	2
12.	Menejmentning Shvetsariya modeli Shvetsariya Konfederatsiyasi umumiy tavsifi. Shvetsariya iqtisodi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Shvetsariya amaliy madaniyati va menejment stili.	2	2

13.	Menejmentning Shvetsiya modeli Skandinaviyaning iqtisodiy rivojlanish modeli. Shved madaniyati qadriyatlarini, Shved madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. Shvetsiya tashkilotlarida menejment stili. Menejmentning shved modeli va xalqaro amaliyot.	2	2
14.	Finlyandiya strategik menejmenti Finlyandiyaning umumiy tavsifi. Finlyandiyaning yuqilg'i-energetika majmuasi. Kompaniyalar tuzilmasi va raqobat. Finlyandiya xalqaro aloqalari	2	2
15.	Norvegiya iqtisodiy strategiyasi Norvegiyaning umumiy tavsifi. Norvegiya iqtisodiy raqobatbardoshligini o'ziga xos xususiyatlari. Norvegiya xalqaro hamkorligi istiqbollari.	2	2
16.	Yaponiya menejment modeli Iqtisodiy-geografik tavsifi va milliylik xususiyatlari. Yaponiyaning xarbiy davrdan keyin o'ziga xos rivojlanishi. Yaponiya iqtisodiy rivojlanishining modeli. Yaponiyada axborot - texnologiyalar. Menejmentning Yapon boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Yapon boshqaruv tizimida menejmentning roli. Yapon modelini xorijiy mamlakatlarda qo'llashning imkoniyatlari. Yaponiyaning xorijiy KMKlarida boshqaruv tizimi: milliy qadriyatlar to'qnashuvi. Yaponiya menejment modeli evolyutsiyasining zamonaviy tendensiyalari. XX-XXI asrlar bo'sag'asida Yaponiyadagi iqtisodiy vaziyat va Yaponiya iqtisodiy rivojlanish modeli va boshqaruv tizimi inqirozi.	2	2
17.	Koreya menejmenti Koreya Respublikasi iqtisodiyotini umumiy tavsifi. Koreya menejmenti. Koreya menejment modeli va unga Yapon boshqaruv amaliyotining ta'siri. Koreya madaniyatidagi konfutsiya an'analari. Koreyaning zamonaviy menejment modeli.	2	2
18.	Xitoy menejmenti Xitoyning umumiy iqtisodiy geografik tavsifi. XXR iqtisodiy rivojlanish modeli. Xitoy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. Oilaviy tadbirkorlik va oilaviy menejment. Davlat korxonalarida menejment. Xitoy menejeri portreti. Menejerlarni va iqtisodiyot sohasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimi.	2	2
Jami semestr bo'yicha		40	40

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

1. Taqqoslama menejmentning yuzaga kelishi va rivojlanishi.
2. Madaniyatlarining turli nazariyasi va ularga yondashuvlar R.Lyuis tasnifi, G.Xofstede tadqiqotlari, F.Trompenaars nazariyasi.
3. Madaniyat va rahbarlik stili.
4. Xalqaro kompaniyalarning institutsional muhiti.

5. Iqtisodiyotni transformatsiyalashda institutsional va ijtimoiy madaniy omillar.
6. Institutsional nazariy asoslarini yuzaga kelishi va rivojlanishi.
7. Institutsional maktab asoschilari: Torsteyn Veblen (1857-1929), Djon Rodjers Kommons (1862-1945), Uesli Kler Mitchell (1874-1948), Yozef Shumpeter (1883-1950)
8. Institutsional iqtisodiyotning zamonaviy nazariyalari: Djon Kennet Gelbreit (1908-2006), Ronald Garri Kouz (1910), Duglas Sessil Nort (1920), Deniel Bell (1919), Elvin Toffler (1928).
9. Turli mamlakatlarda mexnatni rag'batlantirish amaliyoti.
10. Taqqoslama menejment tizimida kommunikatsiya.
11. AQShning menejment modeli.
12. M.Porler nazariyasi.
13. Iqtisodiy rivojlanish modellari va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari iqtisodida davlatning roli.
14. Menejmentning nemis modeli.
15. G'arbiy va Sharqiy Germaniya madaniyatlari va boshqaruv modellari tahlili.
16. Menejmentning Fransuz modeli.
17. Buyuk Britaniya menejmenti.
18. Menejmentning Shvetsiya modeli.
19. Shvetsiya Konfederatsiyasi umumiy tavsifi.
20. Shvetsiya iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.
21. Shvetsiya amaliy madaniyati va menejment stili.
22. Menejmentning Shved modeli.
23. Menejmentning shved modeli va xalqaro amaliyot.
24. Finlyandiya strategik menejmenti.
25. Norvegiyaning umumiy tavsifi.
26. Norvegiya iqtisodiy raqobatbardoshligini o'ziga xos xususiyatlari.
27. Yaponiya menejment modeli.
28. Yapon boshqarish tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
29. Koreya menejmenti.
30. Xitoy menejmenti.

Mustaqil ta'limning maqsadi - talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

Dasturlarning informatsion-uslubiy ta'minoti.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Respublikasining qonunlari, kodekslar, Prezident Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, chet el va Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlar, elektron adabiyotlar, turli slaydlar, vikipediya, ilmiy jurnallardagi maqolalar, ma'ruza matnlari, fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar hamda Internet materiallaridan foydalaniladi.

VII. ADABIYOTLAR. Asosiy adabiyotlar.

3) Yakuniy baholash (80%) (Baholash turi, vaqti, baholash mezonlari)
IX. Talabalar bilimni baholash tizimi.

- A (93-100)
- A- (86-92)
- B+ (82-85)
- B (77-81)
- B- (71-76)
- C+ (67-70)
- C (60-66)
- C- (56-59)
- D (55-50)
- E (0-49)

1. Carla I. Koen. Comparative International Management. Published by McGraw-Hill Education (UK) Limited an imprint of The McGraw-Hill Companies, Inc., 1221 Avenue of the Americas, New York, NY 10020. Copyright © 2005 by McGraw-Hill Education (UK) Limited.
2. Тромпенаарс Ф. и Хэмилден-Тернер Ч. Национально-культурные различия в контексте глобального бизнеса/Пер. с англ. Е.П.Самсонов. – Мн.: ООО «Попурри», 2008. – 528 с.
3. Пивоваров С.Э., Максимцев И.А. Сравнительный менеджмент. 2-е изд. Рекомендовано УМО: – СПб: Питер, 2008. – 480 с.
4. Олянич Д.В. Сравнительный менеджмент. Курс лекций. Ростов н/Д: Феникс, 2010 – 320 с.
5. Мясоедов С.П. Управление бизнесом в различных деловых культурах. – М.: Вершина, 2009. – 320 с.
6. Пивоваров С.Э. Международный менеджмент: учебник для вузов: – СПб: Питер, 2012. – 720 с.

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017. 488b.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga kuramiz - T.O'zbekiston 2017- 488 b
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 – sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida" Farmoni WWW.lex.uz
4. Trompenaars, F., Hampden-Turner, Ch. (1998) Riding the Waves of Culture: Understanding
5. Cultural Diversity in Business (2nd ed.). New York: McGraw-Hill.
6. Van Oudenhoven, J.P. (2001) 'Do Organizations Reflect National Cultures? A 10-Nation Study', International Journal of Intercultural Relations 25: 89-107.
8. Roche, F. (2003) TotalFinaElf – The French Major. Paris: Le cherche Midi. 4.
9. Umarhodjaeva M.G. OPERATIONS MANAGEMENT. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Darslik. Toshkent- 2014. 402 b.

Elektron resurslar:

1. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.mineconomy.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi sayti.
4. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
5. www.worldbank
6. www.openinfo.uz

VIII. Baholash

Fanning yakuniy bahosi uchta yo'nalishdagi baholarga asoslanadi:

- 1) Dars mashg'ulotlariga tayyorgarlik va faol ishtirok etish (10%).
Dars jarayonida muntazam ishtirok etishdan tashqari, talabalar darslar boshlanishidan oldin onlayn o'quv materiallari bilan tanishgan bo'lishlari talab etiladi. Har bir talabadan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etish talab qilinadi.
- 2) Auditoriyadagi mashg'ulotlar (10%).
Har haftada o'tilgan ma'ruzalar asosida 16 ta amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. Har bir amaliyot mag'ulot bo'yicha topshiriqlar keyingi dars mashg'ulotiga qadar bajarilib topshirilishi lozim. Amaliy mashg'ulotda berilgan topshiriqlarni bajarish (10%).